O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

# FarDU. ILMIY XABARLAR

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3-SON**
**ILOVA TO‘PLAM**

# НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

**X.M.Shermatova, G.A.Karaboyeva**
Zamonaviy axborot texnologiyalarining yosh avlod tarbiyasiga psixologik ta'siri tahlili ............141
**I.T.Tojiboev, Z.X.Komilova**
Professional ta'lim muassasalarida dasturlash tillarini o'qitishning zamonaviy usullari ............145
**Z.X.Mamatova**
Zamonaviy informatika mashg'ulotlariga qo'yilayotgan metodik talablarni takomillashtirishning tashkiliy-pedagogik omillari ............151
**A.Y.Axmedov, Z.F.Sherqo'ziyeva**
Ta'lim samaradorligini oshirishda innovatsion va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ............156
**B.B.Djalalov**
Interfaol o'qitish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarda innovatsion kompetentlikni shakllantirishning pedagogik tizimi ............160
**B.S.Siddiqov**
O'quvchilarda aksiologik kompetensiyalarni rivojlantirish mexanizmlari ............165
**D.A.Yo'ldosheva**
Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning kreativ kompetentligini rivojlantirish zamonav iy pedagogikada zaruriyat sifatida ............170
**I.I.Tuychiyeva, Z.Axunova**
Yuqori sinf o'quvchilarining ma'naviy kompitentligini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati....174
**J.U.Tojiboyev**
Talabalarning badiiy-estetik kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi ............178
**M.O.Karimova, X.X.Tojiyev**
Bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligini rivojlantirish muammosi ............183
**Н.А.Абдуллаева**
Педагогические проблемы формирования исследовательских компетенций будущих учителей. ............190
**N.S.Temirov**
Oliy o'quv yurtida mustaqil ta'lim orqali talabalar bilimini oshirishning zamonaviy yondashuvlari ............194
**O.F.Hamrayeva**
Talabalarda irodaviy sifatlarni shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari. ............199
**Sh.O.Aripov**
Xorij olimlarining o'g'il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlash jarayonida gender yondashuvni tadbiq etishga doir fikirlari ............204
**Sh.N.Mehmonaliyev**
Koshifiyning adabiy-pedagogik merosi va uning yoshlarning ma'naviy ahloqiy qadriyatlar tizimiga ta'siri. ............208
**U.Q.Maqsudov**
Modernizatsiyalash sharoitlarida talabalarning kasbiy dunyoqarashni shakllantirish imkoniyatlari ............212
**O.N.Fozilova**
Maktabgacha ta'limda xorijiy mamlakatlar tajribasi (Buyuk Britaniya) ............217
**M.E.Xallokova**
Bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda o'yin texnologiyasining faollashtiruvchi omillari ............222
**I.S.Soliyev**
Maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining axborot kompetentligini rivojlantirishning tashkiliy omillari ............227
**F.O'.O'rinova**
Bo'lajak o'qituvchilarda intellektual kompetentlikni rivojlantirish zarurati va ijtimoiy ahamiyati ............232
**R.Y.O'rinov**
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining intellektual faolligini oshirishning integrativ texnologiyalari ............238

FarDU. Ilmiy xabarlar – Scientific journal of the Fergana State University

Volume 30 Issue 3, 2024-yil DOI:10.56292/SJFSU/vol30_iss3_2t/a35

**UO‘K: 37.041.378.096**

# OLIY O‘QUV YURTIDA MUSTAQIL TA’LIM ORQALI TALABALAR BILIMINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

# СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К ОБУЧЕНИЮ СТУДЕНТОВ ПОСРЕДСТВОМ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ В ВЫСШЕМ УЧЕБНОМ ЗАВЕДЕНИИ

# MODERN APPROACHYeS TO TEACHING STUDENTS THROUGH INDEPENDENT STUDY AT A HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTION

**Temirov Nabijon Soliyevich**
Farg‘ona davlat universiteti pedagogika kafedrasi professori, pedagogika fanlari doktori

***Annotatsiya***

*Ushbu maqolada asosiy maqsad oliy o‘quv yurtlarida talabalarning mustaqil ta’lim jarayonidagi faoliyatiga didaktik jihatlarini aniqlashtirish nazarda tutilgan. Jumladan, oliy o‘quv yurtlari talabalarining mustaqil ta’lim olishlarini pedagogik imkoniyatlari ilmi-nazariy jihatdan tahlil etilgan. Talabalarning mustaqil faoliyatini tashkil etishning ahvoli haqidagi ilmiy-metodik adabiyotlar tahlil qilinib bir qator vazifalar, zamonaviy yondoshuvlar va muammoga oid yechimlar yuzasidan mualliflik yondoshuvlari taklif qilingan. Shuningdek mustaqil ishlar tizimi takomillashtirishning asosiy didaktik vazifalar hamda ularni bajarishning ilmiy-nazariy hususiyatlari o‘rganilgan va tavsiya eilgan.58*

*Ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar ta’lim mazmuni bilan chambarchas bog‘liq. Yangilanishlar talabalar o‘qishini tashkil etishning yangi shakli va usullari haqida ham bosh qotirishni talab etadi. Shu ma’noda talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish muhim shaklgina emas, balki ta’lim jarayonining asosini tashkil etuvchi muhim qism bo‘lishini taqozo etadi. Bularning barchasi ta’lim berish (olish)ning zamonaviy metodlarini egallashni, talabalarning ijodiy qobiliyatlarini o‘stirishni har bir talabaning imkoniyat va salohiyatini e’tiborga olgan holda, guruh o‘qishlaridan individual o‘qishga o‘tishni ko‘zda tutadi. Talabalar mustaqil ishining pedagogik asoslarini shakllantirish muammosi o‘qitishning barcha turlari uchun dolzarb hisoblanadi.*

*Jamiyatimiz o‘zgarib borishi bilan, turmush butun ta’lim tizimini isloh qilinishini qat’iy talab qildi. Barcha o‘quv yurtlarining vazifasi – talabalarda bilim eshiklariga yo‘lochuvchi, ularda bilimga kasb egallashga intilishni, shaxsiy qobiliyatlarni rivojlantiruvchi fanga qiziqishini tarbiyalashdan iborat. Jamiyatimizga ijodiy fikrlovchi, siyosiy savodli, o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga intiluvchi yig‘it va qizlarning yangi avlodi zarur, ular mehnatga kasbiy munosabatda bo‘lishlari, yuzaga kelgan muammo va masalalarni mustaqil hal qila omillari kerak.*

*Iqtidorli yoshlarni rag‘batlantirish O‘zbekiston Respublikasining ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplaridan biri hisoblanadi. Bunda asosiy e’tibor mustaqil ta’lim-olishga, har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirishga ta’sir qiluvchi intellektual va ilmiy salohiyatining rivojlantirilishiga qaratiladi.*

*Uquv yurtida tahsil olish yillarida ukuvchilarda bilimga hamda o‘quv jarayoniga nisbatan mas’uliyatni, intizomni tarbiyalashga intilishni tarbiyalash muhim. Buning uchun pedagog talabalarni o‘z bilimlarini to‘ldirib borishga, ularni mustaqil egallashga o‘rgatish, shaxsning rivojlanishini, qiziqishlarini, layoqatini hisobga olishi zarur.*

***Аннотация***

*Основная сел данной стати – уточнит дидактические аспекты деятелности студентов в процессе самостоятелного обучения в высших учебных заведениях. В частности, с научно-теоретической точки зрения проанализированы педагогические возможности самостоятелного обучения студентов высших учебных заведений. Проанализирована научно-методическая литература по ситуасии организасии самостоятелной деятелности студентов и предложены авторские подходы к ряду задач, современные подходы и пути решения проблемы. Также изучены и рекомендованы основные дидактические задачи по совершенствованию системы самостоятелной работы и научно-теоретические особенности их реализасии.*

*Изменения в системе образования тесно связаны с содержанием образования. Обновления также требуют задуматся о новых формах и методах организасии обучения студентов. В этом смысле организация самостоятелной работы студентов является не толко важной формой, но и важной частю учебного процесса. Все это предполагает приобретение современных методов обучения (получения), развитие творческих способностей учащихся с учетом возможностей и потенсиала каждого ученика, переход от групповых занятий к индивидуалным занятиям. Проблема формирования педагогических основ самостоятелной работы студентов актуална для вцех видов образования.*

***Abstract***

*The main goal of this article is to clarify the didactic aspects of students' activities in the independent education process in higher educational institutions. In particular, pedagogical possibilities of independent education of students of higher educational institutions were analyzed from a scientific and theoretical point of view. Scientific-methodological*

*literature on the situation of organizing students' independent activities was analyzed and author's approaches to a number of tasks, modern approaches and solutions to the problem were proposed. Also, the main didactic tasks of improving the independent work system and the scientific-theoretical features of their implementation were studied and recommended.*

*Changes in the education system are closely related to the content of education. Updates also require thinking about new forms and methods of organizing student learning. In this sense, the organization of students' independent work is not only an important form, but also an important part of the educational process. All this involves acquiring modern methods of teaching (receiving), developing students' creative abilities, taking into account the opportunities and potential of each student, moving from group studies to individual studies. The problem of forming pedagogical foundations of students' independent work is relevant for all types of education.*

***Kalit so'zlar:*** *Oliy o'quv yurti, talaba, mustaqil ta'lim, mustaqil ish, pedago, tizim.*

***Ключевые слова:*** *Vыssheye uchebnoye zavedeniye, student, nezavisimoye obrazovaniye, samostoyatelnaya rabota, pedago, sistema.*

***Key words:*** *Higher education institution, student, independent education, independent work, teacher, system.*

## KIRISH

Mamlakatimizda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy hayotda tub o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Ayniqsa, ta'lim sohasidagi islohotlarda "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning yangi tahrirda qabul qilinishi muhim o'rin tutdi. Har bir mamlakatning rivojlanishi yoki aksincha, inqirozga yuz tutishi mamlakatdagi ta'lim tizimining qay darajada takomillashganiga bog'liq. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari, zamonaviy bilimga ega va mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish va ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda, ijtimoiy soha hamda iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishga strategik masalalar sifatida alohida ahamiyat berilgan. Jumladan, Konsepsiyada "mustaqil ta'lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish" vazifasi belgilangan.

Bunday vazifani amalga oshirish uchun tayyor bilimlarni o'qituvchi tomonidan talabaga berishning o'zigina kamlik qiladi. Bunday yo'l talabani bilimlarni o'zlashtirishning passiv iste'molchisiga aylantirib qo'yadi. Vaholanki, bugun bizga bilimlarni o'zlashtirishdagi passiv iste'molchi emas, balki uning faol ijodkori zarurdir. Natija shunday bo'lishi kerakki, bo'lg'usi mutaxassis har qanday nazariy va amaliy muammoni ifodalay oladigan, uni yechishning yo'llarini ilmiy yoki metodik jihatdan tahlil qilishni uddalaydigan eng munosib va muvofiq natijalarni topib, uning to'g'riligini isbotlab bera oladigan bo'lsin. Ta'lim tizimidagi o'zgarishlar ta'lim mazmuni bilan chambarchas bog'liq. Yangilanishlar talabalar o'qishini tashkil etishning yangi shakli va usullari haqida ham bosh qotirishni talab etadi. Shu ma'noda talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish muhim shaklgina emas, balki ta'lim jarayonining asosini tashkil etuvchi muhim qism bo'lishini taqozo etadi. Bularning barchasi ta'lim berish (olish)ning zamonaviy metodlarini egallashni, talabalarning ijodiy qobiliyatlarini o'stirishni har bir talabaning imkoniyat va salohiyatini e'tiborga olgan holda, guruh o'qishlaridan individual o'qishga o'tishni ko'zda tutadi. Talabalar mustaqil ishining pedagogik asoslarini shakllantirish muammosi o'qitishning barcha turlari uchun dolzarb hisoblanadi.

Olimlarning metodik va psixologo-pedagogik ishlarida o'quvchilarning ko'pqirrali o'quv va tarbiyaviy faoliyati bilan bog'liq bo'lgan mustaqil ishlari masalalari muhim o'rin tutadi.

Talabalarning mustaqil ishlarini shakllantirish tizimi barcha pedagoglar uchun dolzarb hisoblanadi. O'quv yurtida ta'lim olishning zamonaviy mazmunini muvaffaqiyatni o'zlashtirish uchun talabalarning mustaqil faoliyati samaradorligini oshirish zarurligi sababli, ushbu muammoning hal etilishi muhim ahamiyatga ega.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Jamiyatimiz o'zgarib borishi bilan, turmush butun ta'lim tizimini isloh qilinishini qat'iy talab qildi. Barcha o'quv yurtlarining vazifasi – talabalarda bilim eshiklariga yo'lochuvchi, ularda bilimga kasb egallashga intilishni, shaxsiy qobiliyatlarni rivojlantiruvchi fanga qiziqishini tarbiyalashdan

iborat. Jamiyatimizga ijodiy fikrlovchi, siyosiy savodli, oʻz oldiga qoʻygan maqsadiga intiluvchi yigʻit va qizlarning yangi avlodi zarur, ular mehnatga kasbiy munosabatda boʻlishlari, yuzaga kelgan muammo va masalalarni mustaqil hal qila omillari kerak.

Iqtidorli yoshlarni ragʻbatlantirish Oʻzbekiston Respublikasining taʼlim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplarida

n biri hisoblanadi. Bunda asosiy e'tibor mustaqil ta'lim-olishga, har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirishga taʼsir qiluvchi intellektual va ilmiy salohiyatining rivojlantirilishiga qaratiladi.

Uquv yurtida tahsil olish yillarida ukuvchilarda bilimga hamda oʻquv jarayoniga nisbatan mas'uliyatni, intizomni tarbiyalashga intilishni tarbiyalash muhim. Buning uchun pedagog talabalarni oʻz bilimlarini toʻldirib borishga, ularni mustaqil egallashga oʻrgatish, shaxsning rivojlanishini, qiziqishlarini, layoqatini hisobga olishi zarur.

Sharqning buyuk mutafakkirlari – al-Biruniy, Ibn Sino, Nosir ad-Din Tusiy, al-Farobiy, Umar Xayyom, al-Xorazmiy va boshqalar inson rivojlanishi, uning hurmushdagi hamda bilim olish jarayonidan mustaqilligi muammolariga alohida e'tibor berishgan.

70-90 yillarda oʻquvchilarning mustaqilligi rivojlanishi masalasi boʻyicha katta miqdorda material toʻplandi. I.Y.Lerner, Y.K.Babanskiy, B.P.Yesipov, S.R.Radjabov, M.N.Skatkin, P.I.Pidkasistiy, K.X.Xashimov, e.I.Zakinov va boshqalar bu masalalarni tadqiq qilish bilan shugʻullanilgan. Psixolog olimlarning tadqiqotlari ham (V.V.Davidov, A.K.Markov va b.) oʻquvchilar mustaqil ishlashining mohiyatini aniqlashga bagʻishlanganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Pedagogika nazariyasi va tarixi boʻyicha dissertatsiyalar himoya qilindi, turli fanlarni oʻrganish jarayonida oʻquvchilar mustaqilligi masalalari bilan bevosita bogʻliq boʻlgan koʻplab monografiyalar nashr qilinib, ular: oʻqitish jarayonini intensifikatsiyalash rolini hamma oʻquvvchilarning mustaqil faoliyatiga strukturaviy yondoshishni (A.Abduqodirov, F.Yuzlikayev va b.); oʻquvchilarning mustaqil ishini ularning bilish faolligi va mustaqilligini rivojlantirish vositasi sifatida (N.Doson, I.Nurmuratov, S.Yarseva); darsda va darsdan tashqari paytda mustaqil ishni tashkil etishning turli usullarini qoʻshib olib borishni (A.Matmuratov, X.Abdukarimov, Sh.Axrarov, e.Zakinov); individual faoliyatga mustaqil yondoshishni (X.Omonov, T.K.Tolipova, B.Turdibayeva va b.) ochib beradi.

Mustaqillik u yoki bu darajada har qanday insonga xos boʻlib, shaxsning eng muhim xislati hisoblanadi, shuning uchun ham oliy oʻquv yurtida har bir fanni oʻqitishda talabalarda mustaqillikni rivojlantirish zarur.

Talabalarning aqliy mustaqilligini, ijodiy faolligini rivojlantirish uchsun ham auditoriyada, ham undan tashqarida keng imkoniyatlar yaratiladi. Shunga qaramasdan, oʻquv rejasida mustaqil ish uchun vaqt ajratiladi va oliy oʻquv yurti kurslari talabalarning mustaqil faolligini rivojlantirish uchun oʻta qulay "faoliyat maydoni" hisoblanadi.

Talabalarning mustaqil faoliyatini tashkil etishning ahvoli haqidagi ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish natijasida quyidagi asosiy vazifalarni belgiladik:

1. Muammo boʻyicha falsafiy, ijtimoiy, psixologo-pedagogik va metodik adabiyotlarni tahlil qilish.

2. Vatanimiz va chet el taʼlim tizimida talabalarning mustaqil ishini tashkil qilishning pedagogik asoslari nazariyasi va amaliyotining genezisini hamda zamonaviy ahvolini tahlil qilish.

3. Talabalarning mustaqil ishini tashkil qilishning parametrlarini, oʻziga xos jihatlarini va mumkin boʻlgan shakllarini aniqlash.

4. Talabalarning mustaqil ishini tashkil qilishning shaxsga yoʻnaltirilgan metodikasini tavsiflash, uni talabalarning mehnat faoliyatiga tayyorgarlik jarayoni bilan bogʻlash.

5. Talabalarning mustaqil ishini tashkil qilishning motivlarini aniqlash va mohiyati hamda prinsiplarini ochib berish.

6. Talabalarning mustaqil ishini individuallashtirish, uni oʻrni va psixologo-pedagogik asoslarini yoritish.

7. Talabalarning mustaqil ishini tashkil qilishning butun jarayonini ishlab chiqish va tajriba yoʻli bilan tekshirib koʻrish.

8. Talabalarning mustaqil ishini tashkil etish boʻyicha tavsiyanomalar ishlab chiqish.

Mustaqil ishlar tizimini tuzishda qoʻyidagilar asosiy didaktik talabalar sifatida ilgari surilgan:

1. Mustaqil ishlar tizimi asosiy didaktik vazifalarni hal etishga – talabalar chuqur layoqatini rivojlantirish, bilimlarni mustaqil egallash, kengaytirish va chuqurlashtirish ularni amalda qoʻllay olish malakasini shakllantirishga yordam berishi kerak.

2. Tizim didaktikaning asosiy prinsiplariga va avvalo, tushunarlilik va tizimiylilik, nazariyaning amaliyot bilan bogʻliqligi, onglilik va ijod
iy faollik, yuqori ilmiy saviyada oʻqitish prinsiplariga javob berishi kerak.

3. Tizimga kiruvchi ishlar oʻquv maqsadi va mazmuni boʻyicha turli-tuman boʻlishi, talabalarda har xil bilim va malakalarning shakllantirilishini ta’minlashi kerak.

4. Uyda va auditoriyada mustaqil ishlarni bajarish ketma-ketligi mantiqan avvalgisisdan kelib chiqishi va keyingisiga zamin tayyorlashi kerak.

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

Barcha fanlar boʻyicha mashgʻulotlarda, turli xil mustaqil ishlar yordamida talabalar bilimlar, malakalar va koʻnikmalarni egallashlari mumkin. Barcha ishlar maolum bir tarzda tashkil etilsa, yaoni biror tizimga solingan boʻlsagina, ijobiy natija berishi mumkin.

Mustaqil ishlar tizimi deganda biz avvalo ishlarning oʻzaro bogʻlangan, oʻzaro bir-birini toʻldiradigan, mantiqan biri ikkinchisidan kelib chiqadigan va umumiy topshiriqlarga boʻysunadigan turlarining yigʻindisini tushunamiz.

Mustaqil ishlar tizimini tuzishda quyidagilar asosiy didaktik talabalar sifatida ilgari surilgan:

1. Mustaqil ishlar tizimi asosiy didaktik vazifalarni xal etishga - talabalar chuqur va mustaxkam bilimlarni egallashi, ularda bilish layoqatini rivojlantirish, bilimlarni mustaqil egallash, kengaytirish va chuqurlashtirish ularni amalda qoʻllay olish malakasini shakllantirishga yordam berishi kerak.

2. Tizim didaktikaning asosiy prinsiplariga va avvalo, tushunarlilik va tizimiylilik, nazariyaning amaliyot bilan bogʻliqligi, onglilik va ijodiy faollik, yuqori ilmiy saviyada oʻqitish prinsiplariga javob berishi kerak.

3. Tizimga kiruvchi ishlar oʻquv maqsadi va mazmuni boʻyicha turli-tuman boʻlishi, talabalarda xar xil bilim va malakalarning shakllantirilishini ta’minlashi kerak.

## XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tanlab olinadigan va ixtiyoriy topshiriqlar nafaqat didaktik qiymatga ega. Ular islohotlar va demokratlashtirishning zamonaviy bosqichida jamiatimizning eng dolzarb tarbiyaviy maqsadlariga erishish uchun yaxshi shart-sharoit yaratadi. Tanlash qobiliyatini shakllantirish va bagʻri kenglikni tarbiyalash, ixtiyoriy topshiriqlarni bajarishga tayyorlikni rivojlantirish, muammoni oʻzi topish va xal qilish qobiliyatini shakllantirish, shuningdek oʻzini boshqara olish layoqatini shakllantirish eng muxim vazifalardan xisoblanadi. Oliy oʻquv yurtlari xayotini aks ettiruvchi davriy nashrlar maolumotiga koʻra bunday topshiriqlar oliy oʻquv yurtlaridagi yangilanish talablariga xamda talabalar talablariga javob beradi.

Ta’limda mustaqil ishlar (TMI) kutilgan samarani berishi uchun qator shartlar bajarilishi zarur.

1. Katta hajmdagi mustaqil ishlarni va auditoriya ishlarini toʻgʻri qoʻshib olib borilishini ta’minlash.

2. Talaba ishini auditoriyada va undan tashqarida metodik jihatdan toʻgʻri tashkil etish.

3. Mustaqil ish jarayonini ijodiy jarayonga aylantirish maqsadida talabani zarur metodik materiallar bilan ta’minlash.

4. Mustaqil ishning tashqil qilinishi va borishini, hamda talabani ish sifati uchun ragʻbatlantirish choratadbirlarini nazorat qilish. Nazorat ma’muriy tadbir emas, balki TMI samadorligiga ijobliy ta’sir koʻrsatuvcha toʻlaqonli didaktik shart boʻlishi uchun bu shart birinchi uchtaning ichida u yoki bu koʻrinishda albatta ishtirok etishi kerak.

## ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. «Oʻzbekistonni rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida» Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil, 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni.

2. Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari toʻplami, 2017 y., 6-son, 70-modda, 20-son, 354-modda,23-son, 448-modda, 37-son, 982-modda.

3. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Qarori.

4. O.A.Qoʻysinov, N.A.Muslimov. Kasb ta’limi oʻqituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta’limni tashkil etishning nazariyasi va metodikasi. Monografiya. — T.: “Fan”, 2009. — 92 b.

5. O.A.Qoʻysinov. Kasb ta’limi yoʻnalishi bakalavr oʻqituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta’limning ilmiy-metodik asoslari: Dis. ... ped. fan. nom. — T.: TDPU, 2008. — 160 b.

6. Sh.I.Yoʻldashev. Talabalarning mustaqil ta’limining zamonaviy oʻquv jar
Bexato, [20.06.2024 9:14]

ayonida ahamiyati va oʻrni // Uslubiy qoʻllanma. — T.: OʻzMU, 2022. — 41 b. 4. D.R.Karimova. Kredit-modul tizimida mustaqil ta'lim // Uslubiy qoʻllanma. — Toshkent: OOO "Complex Print", 2021. 126 bet

7. Temirov, N. S., & Maksudov, U. K. (2023). Cosialnыye i vospitatelnыye faktorы sistemы formirovaniya nasionalnыx syennostey v vuze. "Aktualnыye Voprosы Ekonomiki I Upravleniya, Prava, Psixologii I Obrazovaniya: Opыt Nastavnika" sbornik nauchnыx statey yejegodnoy mejdunarodnoy konferensii nauchno-pedagogicheskix rabotnikov. Sankt-Peterburg, 2023.

8. N.O.Joʻrayeva. Ta'lim jarayonida mustaqil oʻquv faoliyatini tashkil etish boʻyicha ayrim koʻrsatmalar//Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. 2021.№3. — 172 b.

9. G.M.Musaxanova. Mustaqil ta'lim jarayonida talabalarning tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. 2020. №6. — 222-224 b.

10. R.R.Xusainov. Oliy ta'limda fanlarni oʻqitish sifatini oshirishda mustaqil ta'limning roli // Zamonaviy ta'lim. 2016. №4. — 25-32 b.

11. G.N.Ibragimova. Oliy ta'lim tizimida interfaol texnologiyalar vositasida talabalardagi ijodiy fikrlashni rivojlantirish // Zamonaviy ta'lim. 2017.№4. — B. 30-35. 9. N.Suyunov. Mustaqil ishlarni bajarish uchun // Uslubiy koʻrsatma. — T.: 2019. — 116 b.

12. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik –T.: SANO-STANDART, 2017.

13. Umrnniy pedagogika. Qism I: darslik / O.Musurrnonova [va boshq.]. - Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. - 376 b.

14. Roʻziyeva D.I., Tolipov O.Q. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. –T.: INNOVATSIYA-ZIY, 2019.

15. Sh.Abdullayeva, D.I.Roʻziyeva. Pedagogik diagnostika va korreksiya.Darslik. - T.: Fan va texnologiyalar, 2019.

16. Axrarova Z., Sadikova Sh., Sodikov U., Allayarova S., Shodmonov Sh. Umumiy pedagogika. Barcha ta'lim yoʻnalishlari uchun oʻquv qoʻllanma. – Toshkent: MUMTOZ SOʻZ". 2020 y.- 331 b.

17. Tolipov O`., Ro`ziyeva D. PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA PEDAGOGIK MAHORAT Toshkent: "Innovatsiya ziyo". 2021 y. Ukuv kullanma.

18. XUDOYKULOV N. TARBIYAVIY ISHLAR METODIKASI. Toshkent: "Innovatsiya ziyo". 2021 y. Ukuv kullanma.

19. Oʻ.M.Asqarova, M.S.Nishonov, Z.B.Kurbanova, D.A.Muminova Pedagogik va psixologik fanlarni oʻqitish metodikasi. Toshkent – 2019.

20. Muxsiyeva A.Sh. Oila pedagogikasi. - T.: Adabiyot uchqunlari nashriyoti, 2018 y.

21. Gulyamov Dj.R, Mamatkulov D.A, Axmedova M.T, Umarova M.X, Abidjanova M.A Neyropedagogika (metodik qoʻllanma) / Dj.R Gulyamov tarixi ostida - Toshkent: TDPU, 2017. - 113 b.

22. Gulyamov Dj.R, Umarova M.X, Gulomova N.B Pedagogik diagnostika va korreksiya. metodik Toshkent: TDPU qoʻllanma 2018.

23. Xodjayev B.X., Choriyev A., Saliyeva Z.T. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi. Darslik. – T.: IQTISODIYOT DUNYOSI, 2018.